PARLAMENT INSTITUTINING SHAKLLANISHI VA SIYOSIY QAROR QABUL QILISHDAGI EVOLYUTSIYASI

Maftuna Qurolboyeva

O‘zDJTU, Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada parlament institutining qadimgi davrlardan zamonaviy davlat boshqaruvigacha bo‘lgan tarixiy shakllanish bosqichlari va evolyutsiyasi xususida fikr yuritiladi. Tadqiqotda parlamentning vakillik organi sifatida paydo bo‘lishidan boshlab, uning qonun chiqaruvchi, nazorat va vakillik funksiyasilarini qanday egallash jarayoni tahlil qilinadi. Qadimgi Gretsiya va Rim assambleyalaridan tortib, o‘rta asrlar tabaqaviy parlamentlariga, XVII-XVIII asr inqilobiy o‘zgarishlariga va XIX-XX asrda demokratik vakillikning kengayishiga qadar bo‘lgan evolyutsion zanjir ko‘rib chiqiladi. Maqolada, shuningdek, parlament tizimining turli davlatlardagi rivojlanish xususiyatlari va Britaniya Vestminster modelining dunyo parlamentarizmi shakllanishiga ta’siri yoritiladi. Parlament faoliyatining samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi omillar, uning ijro etuvchi hokimiyat bilan o‘zaro munosabatlari hamda zamonaviy ochiqlik , shaffoflik va hisobdorlik tamoyillariga asoslangan holda faoliyat yuritishi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari parlament institutining bugungi demokratik boshqaruvdagi o‘rnini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *parlament, evolyutsiya, siyosiy institut, qonun ustuvorligi, qonun chiqaruvchi organ, demokratiya, vakillik*

Abstract. This article explores the historical development of the parliamentary institution and its role in political decision-making. The study analyzes the process of parliament’s emergence as a representative body, how it acquired legislative, control and representative functions. The evolutionary chain from the assemblies of ancient Greece and Rome to the class parliaments of the Middle Ages, to the revolutionary

changes of the 17th-18th centuries and the expansion of democratic representation in the 19th-20th centuries is considered. The article also highlights the features of the development of the parliamentary system in different countries and the influence of the British Westminster model on the formation of world parliamentarianism. Factors affecting the effectiveness of parliament, its interaction with the executive branch, and the justification of its functioning based on the principles of modern openness, transparency and accountability are presented. The results of the study serve to further understand the place of the parliamentary institution in today's democratic governance.

Keywords: *parliament, evolution, political institution, rule of law, legislative body, democracy, representation*

Kirish

Zamonaviy siyosiy tizimlarda parlament instituti davlat boshqaruvining ajralmas va markaziy qismini tashkil etadi. U nafaqat qonun chiqaruvchi organ, balki siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida turli ijtimoiy manfaatlarni muvofiqlashtiruvchi, ijrioya hokimiyat ustidan nazoratni amalga oshiruvchi hamda xalq vakilligi funksiyasini bajaruvchi institut hisoblanadi. Demokratik davlat qurish parlamentning tutgan o‘rni shunchalik muhimki, ko‘plab siyosatshunos olimlar parlamentning mavjudligi va faoliyat sifatini demokratiyaning asosiy mezonlaridan biri deb belgilaydi. Parlament shakllanishi va rivojlanish insoniyat siyosiy tafakkurining evolyutsiyasi, davlat hokimiyatini cheklash hamda muvozanatlash zarurati bilan chambarchas bog‘liqdir. Vakillik boshqaruvi g‘oyasi qadimgi davr shahar-davlarlarida yuzaga kelib o‘rta asrla tabaqaviy majlislar shaklini olgan, yangi davr inqiloblari natijasida esa zamonaviy konstitutsiyaviy asosga ega bo‘lgan. Ushbu jarayon bir tekis kechmagan: parlament ba’zan qirollar bilan ochiq to‘qnashuvlarga kirishgan, ba’zan esa ijro hokimiyatining bosimi ostida qolgan. Tarixan parlament institutining ilk shakllari Angliyada yuzaga kelib, 1215-yilda Magna Carta imzolanishi bilan monarxiya hokimiyatini birinchi marta qonuniy cheklash yo‘lida muhim hal qiluvchi qadam bo‘ldi [3]. Keyinchalik,

1688-yilgi “Shonli inqilob” natijasida parlamentning siyosiy tizimdagi ustuvorligi mustahkamlanib, u mustaqil qonun chiqaruvchi organ sifatida shakllandi. Ushbu jarayonlar parlament institutining evolyutsion rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi.

Muhokama va natijalar

“Parlament” fransuzcha “parler” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, so‘zma-so‘z o‘girganda “gapirmoq”, “gapiriladigan joy” degan ma’nolarni anglatadi. Parlament – bu qonunlar qabul qilish vakolatiga ega bo‘lgan saylangan vakillar guruhi [5]. Parlament saylangan vakillar orqali davlat boshqaruvida ishtirok etuvchi hamda jamiyat manfaatlarini ifodalovchi siyosiy institut bo‘lib, uning vakolatlari faqat qonun qabul qilish bilan cheklanmaydi. Yig‘ilishlar, vakillik va qonunchilikning asosiy tushunchalari – qonun ijodkorligi – ming yilliklarga borib taqaladi [8]. Ushbu atama vakillik organini ifodalovchi tushuncha sifatida dastavval Angliyada qo‘llanilgan. Insoniyat tarixida ingliz parlamentidan ancha oldinroq shakllangan va parlament deb nomlanmagan bo‘lsada, u yoki bu ma’noda vakillik organi vazifasini bajargan idoralar ham mavjud bo‘lgan. Bular qatoriga qadimgi Yunonistonda hukmdorlik qilgan Solon davridagi “Bule – to‘rt yuzlar kengashi” va Klisfen vaqtidagi “Besh yuzlar kengashi”ni, shuningdek Qadimgi Rimdagi xalq majlislari, senat va magistraturalarni kiritishimiz mumkin [7]. Bu idoralar o‘rta asrlarda tabaqaviy vakillik organlarining yuzaga kelishida o‘ziga xos poydevor vazifasini o‘tagan. Parlamentning asosiy vazifasi qonun ijodkorligidan iboratligi bois, u “qonun chiqaruvchi organ” deb ham yuritiladi. Biroq, mazkur atama “parlament” tushunchasiga nisbatan birmuncha tor hisoblanadi, chunki u oliy vakillik organi faoliyatining barcha qirralarini o‘zida aks ettira olmaydi. Parlamentlar o‘z tuzilishi jihatidan bir (yunikame-ral) yoki ikki palatali (bikameral) bo‘lishi mumkin. Uzoq tarixda palatalarga bo‘lishning asosiy mezoni sifatida aholi quyi va yuqori tabaqalari manfaatlarining rang-barangligi maydonga chiqqan. Asrlar

o‘tib parlament tobora umum manfaatni ifodalovchi idoraga aylangani sari bunday mezon o‘rnini hududlar manfaati, ularning vakilligi egallay boshlagan.

Ko‘plab qadimgi madaniyatlarda muhim masalalarni muhokama qilish va hal etish uchun yetakchilar yig‘ilishi chaqirilgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, jamoaviy boshqaruv elementlari miloddan avvalgi III ming yillikda Qadimgi Mesopotamiyada (hozirgi Iroq va Suriya hududlari) shaharlarida ham mavjud bo‘lgan [1]. Zamonaviy parlament tizimiga yaqin bo‘lgan ilk yig‘ilishlar qadimgi Gretsiya va Rimda qaror topgan. Miloddan avvalgi V asr boshlarida Afinada ochiq fuqarolar assambleyasi – Ekklesia – tashkil etilgan bo‘lib, u Pniks tepasida muntazam yig‘ilgan; qarorlar ovoz berish yo‘li bilan qabul qilingan [1]. Rim Respublikasida esa (miloddan avvalgi 509-yildan) ikki saylangan konsul va senat birgalikda davlatni boshqargan; senat tarkibiga zodagon oilalar vakillari kirgan [7].

1188-yilda Ispaniyada Leon Kortesi chaqirilgan bo‘lib, unda nafaqat zodagonlar, balki shahar vakillari ham qatnashgan; bu tarixdagi ilk vakillik majlislaridan biri sifatida tan olingan [4]. Angliyada 1215-yil qirol Ioann tomonidan imzolangan Buyuk Xartiya (Magna Carta) monarxiya vakolatilarini qonuniy cheklovchi hujjat sifatida parlament tarixida alohida o‘rin egallaydi [3]. 1265-yil Simon de Monfor tashabbusi bilan chaqirilgan kengashda baronlar va cherkov vakillari bilan bir qatorda ritsarlar va shaharlar namoyondalarining ham ishtirok etishi Angliya parlamentarizmi tarixida muhim yangilik bo‘ldi [4]. Keyinchalik parlament Lordlar platasi va Jamoatlar palatasiga bo‘lindi. Bu davrda ilg‘or siyosiy mutafakkirlar davlatni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga ajratish zarurligini ilgari surdilar [2]. Natijada konstitutsiyaviy monarxiya shakllanishiga zamin yaratildi [6]. Dastlab parlament qirolga maslahat beruvchi va soliq masalalarida muzokarachi organ vazifasini bajargan bo‘lsa, keyinchalik uning vakolatlari sezilarli kengayib bordi [8]. Natijada Parlamentarizmning shakllaridan biri – konstitutsiyaviy monarxiya (Angliya va boshqa mamlakatlarda) ta’sis qilingan [6]. Ijtimoiy aloqalar tuzilishi murakkablashib borishi

bilan ijro etuvchi hokimiyat (prezident, hukumat) vakolatlarining kuchayish jarayoni yuz bergan.

XVII asr Britaniya parlamentarizmi tarixida burulish nuqtasi bo‘ldi. Ayniqsa, Jamoatlar palatasi bilan qirol o‘rtasidagi kuchayib borgan qarama-qarshilik fuqarolar urushiga olib keldi va 1649-yilda Karl I ning qatl etilishiga hamda Buyuk Britaniyaning respublika deb e‘lon qilinishi bilan yakun topdi [7]. 1688- yilgi “Shonli inqilob” va undan keyingi “Bill of Rights” qabul qilinishi parlament ustuvorligini huquqiy jihatdan mustahkamladi [3]. 1689-yilda yangi monarxlar parlament mustaqiligini – jumladan, so‘z erkinligi va muntzam yig‘ilishlar o‘tkazish huquqini rasmiy ravishda tan oldi [3]. Natijada qonun chiqarish vakolati to‘liq parlamentga o‘ta boshladi, qirolning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi roli esa sezilarli darajada cheklandi [8].

XVII asrning oxirlarida Britaniyada ikkita siyosiy partiya - Viglar va Torylar – shakllanib, zamonaviy ko ‘ppartiyaviy tizimning ilk namunasi tashkil etdi [8]. Viglar parlament vakolatlarini kengaytirishni yoqlab, XIX asrda islohotchi Liberal partiyaga, so‘ngra bugungi Liberal Demokratlarga aylangan. Torylar esa monarxiya va anglikan cherkovining nufuzini qo‘llab-quvvatlab, konservativ yo‘nalishni saqlab qolgan. Siyosiy partiyalar institutining paydo bo‘lishi parlament ichida tashkiliy raqobatni vujudga keltirib, vakillik demokratiyasini yanada chuqurlashtirishga xizmat qildi.

Britaniya Vestministar tizimi dunyo parlament amaliyotiga katta ta’sir ko‘rsatdi [9]. Ko‘plab sobiq Britaniya mustamlakalari Vestminstar modelini o‘zlari uchun moslashtirdi. Jumladan, Kanada 1867-yilda mustaqillikka erishib, ikki palatali tizimini joriy etdi [9]. Fransiyada 1789-yilgi inqilobdan so‘ng Milliy Assambleya tuzildi, 1791-yilda ikki palatali tizimga o‘tildi; hozirgi Fransiya parlamenti Milliy Assambleya va Senatdan iborat [9]. Hindistonda 1952-yildan ikki palatali parlament faoliyat yuritmoqda. Yangi Zelandiya 1951-yilda o‘z parlament tuzilmasini isloh qilib, bir palatali tizimga o‘tdi [9]. 1789-yildan boshlab AQSHda ikki palatali Kongress

(Vakillar palatasi va Senat) hamda bilvosita saylov yo‘li bilan saylanadigan prezident asosiy boshqaruv institutlari bo‘lib kelmoqda [9]. XIX-XX asrlarda saylov tizimining kengayishi, siyosiy partiyalarning institutsionllashuvi va fuqarolik huquqlarining rivojlanishi parlamentni haqiqiy vakillik organiga aylantirdi. Endilikda parlament nafaqat qonun chiqaruvchi organ, balki ijro hokimiyatini shakillantiruvchi va nazorat qiluvchi asosiy siyosiy institutga aylanadi.

Xulosa

Qadimgi assambleyalarda ildiz otgan va asrlar davomida siyosiy evolyutsiya tamoyillari asosida shakllangan parlament demokratik boshqaruvning ajralmas unsuri bo‘lib qolmoqda. Muhokama, hisobdorlik va konsensusga erishish tamoyillariga tayangan holda u qonun chiqaruvchi organlarga murakkab ijtimoiy muammolarni hal etishda va jamiyat manfaatlarini ro ‘yobga chiqarishda yo‘l ko‘rsatib kelmoqda. Parlament tizimlari rivojlanib borar ekan, ushbu tamoyillarga sodiqlikni saqlab qolish doimiy o‘zgarib borayotgan dunyoda demokratik institutlarning barqarorligi va dolzarbligini ta’minlaydi.

Parlament institutining shakllanishi qadimgi vakillik idoralari tajribasidan boshlab, o‘rta asrlar tabaqaviy parlamentlariga, XVII asrda “Shonli inqilob” dan keyingi huquqiy mustahkamlikka va XIX–XX asrda vakillik hamda demokratiyaning kengayishiga qadar bo‘lgan evolyutsion jarayonni o‘z ichiga oladi. Zamonaviy parlamentlar siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida markaziy rol o‘ynaydi, qonun ijodkorligi va ijro etuvchi hokimiyat ustidan nazoratni ta’minlaydi hamda xalq vakilligi funksiyasini amalga oshiradi. Shu tariqa, parlament institutining evolyutsiyasi siyosiy institut sifatida davlat boshqaruvidagi o‘zgarishlar va demokratik tamoyillar bilan bevosita bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Parliamentary Education Office. A short history of Parliament. Url:

https://peo.gov.au/understand-our-parliament/history-of-parliament/history-milestones/a-short-history-of-parliament.

2. Monteskye Charles-Louis de Secondat. Qonunlar ruhi. Jeneva (Shvetsariya), 1748. – 757 b.
3. Locke John. Two Treatises of Government. London, 1689. Second Treatise, Ch. VIII. – 358 b.
4. Brown Keith. Parlament protseduralarining evolyutsiyasi: tarixiy nuqtai nazar. Oxford University Press. – 320 b.
5. A. X. Saidov. Parlament huquqi (O ‘quv qo ‘llanma). Toshkent: Adolat, 2009. – 256 b.
6. O. T. Xusanov. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. Toshkent: Yuridik adabiyotlar, 2020. – 400 b.
7. B. E. Чиркин. Сравнительное конституционное право. Учебник. Москва., 2021. – 448 с.
8. A. C. Автономов. Парламентаризм в современном мире. Монография. Москва, 2015. – 320 с.
9. Global Parliamentary Report 2022: Public Engagement in the Work of Parliament. Geneva: IPU and UNDP, 2022.–P.12-18. Url: https://www.ipu.org/resources/publications/reports/2022-03/global-parliamentary-report-2022#.